ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

XROMOSOMA VA AUTOSOMA GEN KASALLIKLARI: GENETIK ASOSLARI, KLINIK XUSUSIYATLARI VA DAVOLASH STRATEGIYALARI

Abbosova Hulkar Abbos qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Davolash fakultetini talabasi
hulkarabbosova1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xromosomal kasalliklar hamda autosomal gen mutatsiyalari bilan bog‘liq metabolik sindromlarning genetik, biokimyoviy va klinik jihatlari yoritiladi. Aminokislotalar,uglevodlar va lipidlar almashinuvining buzilishi bilan kechadigan irsiy metabolik kasalliklar patogenezi, ularning rivojlanishida xromosoma anomaliyalari va gen mutatsiyalarining o‘rni tahlil etiladi Shuningdek, biokimyoviy diagnostika, genetik skrining, prenatal tekshiruvlar, dietoterapiya, ferment almashtiruvchi terapiya va gen terapiyasi kabi zamonaviy davolash yondashuvlari ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot irsiy metabolik kasalliklarni erta aniqlash va profilaktik choralarini belgilashdagi tibbiy-genetik yondashuvlarning dolzarbligini asoslandi.

Kalit so‘zlar: xromosoma anomaliyalari, autosomal gen kasalliklari, metabolik buzilishlar, aminokislota almashinuvi,uglevod metabolizmi,lipid almashinuvining buzilishi, fenilketonuriya,galaktozemiya,lipidozlar,genetik diagnostika, ferment yetishmovchiligi, gen terapiyasi.

Abstract. This article discusses the genetic, biochemical and clinical aspects of chromosomal diseases and metabolic syndromes associated with autosomal gene mutations. The pathogenesis of hereditary metabolic diseases accompanied by disorders of amino acid, carbohydrate and lipid metabolism, the role of chromosomal abnormalities and gene mutations in their development are analyzed. Also, modern treatment approaches such as biochemical diagnostics, genetic screening, prenatal examinations, diet therapy, enzyme replacement therapy and gene therapy are considered on a scientific basis. The study substantiated the relevance of medical-genetic approaches in the early detection of hereditary metabolic diseases and the definition of preventive measures.

Keywords: chromosomal abnormalities, autosomal gene diseases, metabolic disorders, amino acid metabolism, carbohydrate metabolism, lipid metabolism disorders, phenylketonuria, galactosemia, lipidosis, genetic diagnostics, enzyme deficiency, gene therapy.

Kirish. Irsiy kasalliklar inson genomining xromosomal va gen darajasidagi buzilishlari natijasida shakllanib, organizmning biokimyoviy jarayonlariga chuqur ta‘sir ko‘rsatadi. Irsiy kasalliklarning barchasi ham nasldan-naslga o‘taveradi, chunki irsiy kasalligi bo‘lgan individual juda erta halok bo‘ladi yoki nasl qoldirish qobiliyatiga ega bo‘lmaydi. Irsiy kasalliklar tashqi muhitning mutagen ta'sirida sodir bo‘ladi.Lekin bu jarayon organizmning ichki muhiti, ya'ni genotipi ham katta rol o‘ynaydi, agar kasallik yuzaga chiqishida ham atrof-muhit omillarning, ham genotip ahamiyatli bo’lsa, bunday kasalliklarni multiomilli (multipikator) irsiy kasalliklar deyiladi (oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichakda bo‘ladigan jarohat, jigar, o‘pka kasalliklari, ateroskleroz, gipertoniya, yomon sifatli o‘sma kasalliklarining ayrimlari va hokazo).

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O‘zbekiston genetika va klinik tibbiyot sohasida xromosoma va autosoma gen kasalliklariga oid tadqiqotlar so‘nggi yillarda izchil rivojlanmoqda. Bu mavzu bo‘yicha milliy ilmiy jurnallarda,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

dissertatsiya ishlarida hamda kasalliklarni diagnostika va terapiya bo‘yicha metodik qo‘llanmalarda aniq ma’lumotlar mavjud.

O‘zbekcha manbalar sharhi

Rahmonov A., 2017. Xromosoma bozukliklari irsiy kasalliklarda uchraydigan asosiy mexanizmlar tavsifi. Muallif Turner, Down va Klinefelter sindromlari bo‘yicha klinik holatlarni misollar bilan tahlil qilgan.

Nurmuhamedova D., 2019. Autosoma gen kasalliklari, xususan fenilketonuriya va talassemiya bo‘yicha epidemiologik tadqiqot. O‘zbekiston hududida kasallik tarqalishi statistik ma’lumotlari keltirilgan.

Ergashev S., 2021. Genetik skrining usullari, molekulyar diagnostika va terapevtik yondashuvlar. O‘zbekiston sharoitida PCR, karyotiplash va NGS (keyingi avlod sekvenirlash) qo‘llanilishi tahlil qilingan.

Tahliliy qarash

O‘zbek adabiyotida genetik kasalliklar bo‘yicha yo‘naltirilgan ilmiy ishlar mavjud bo‘lsa-da:

- Tadqiqotlar ko‘proq klinik tavsiflar asosida.
- Molekulyar-genetik bosqichlar yetarlicha chuqur qamrab olinmagan.
- Genetik yo‘naltirilgan davolash (gen terapiya) masalalariga kam e'tibor berilgan.

Xromosoma kasalliklari

Xromosoma kasalliklari -bu insonning genetik materialidagi xromosomalar soni yoki tuzilishidan buzilishlar natijasida yuzga keladigan irsiy kasalliklar. Ular organizmning normal rivojlanishi, metabolizm va hayot faoliyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Odatda, xromosoma kasalliklariga duchor bo‘lganlar bolalik chog‘idayoq halok bo‘lishadi yoki o‘zidan keyin nasl qoldirmaydi. Shuning uchun xromosoma kasalliklari nasldan-naslga doimo ham o‘tmaydi va har avlodda yangidan paydo bo‘ladi.Hozirgi kunda xromosomaning soni va strukturasining o‘zgarishi natijasida sodir bo‘ladigan irsiy kasalliklardan 2000 ga yaqin ma‘lum. Xromosoma irsiy kasalliklari autosomalarining va jinsiy xromosomalarning soni va strukturasining o‘zgarishi bilan yuzaga chiqishi mumkin.

Autosomalarga bog‘liq bo‘lgan kasalliklar

Daun sindromi. Bu kasallik angliyalik vrach L.Daun tomonidan 1866-yilda aniqlangan edi. Daun kasalligi odatda 21 autosomaning oshib ketishi natijasida sodir bo‘ladigan sindromi erkaklardan ham ayollarda ham uchraydi.

Daun kasalligining belgilari. Daun sindromi mavjud bo‘lgan bolalarni bejiz Quyosh bolalari deyishmaydi. Chunki ular doimo kulib boqishadi. Daun sindromi -bu shunchaki aqliy rivojlanishdan orqada qolish emas. Xromosoma to‘plamining o‘zgarishi tufayli hujayralar darajasidagi moddalar almashinuvi buziladi va buning natijasida organizmdagi aksariyat organlar va to‘qimalarga zarar yetkaziladi.

Asosiy belgilari:

- Kasal bolalarning bo‘yi past
- Kallasi kichik va yumaloq
- Burni kalta
- Ko‘z kesimi egri
- Ko‘pincha ko‘zda g‘ilaylik bo‘ladi
- Quloq suradi kichik
- Og‘zi yarim ochiq

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

- Og‘zidan ko‘pincha tili chiqib turadi
- Kaftdagi atd burchak 80° va undan ham katta bo‘lishi mumkin.

Odatda, Daun kasalligiga sitogenetik va dermatoglifik usullar yordamida tashxis qo‘yiladi.





Lekin kasallikni davolash usullari hozirgacha aniq emas.

Edvards kasalligi.

1960-yili D.Edvards kasal qizning kariotipini aniqlaganda, unda bitta, ya'ni 18-xromosomada ortiqcha ekanligi topdi (46+1) va bu kasallikning belgilarini to‘liq o‘rgandi. Edvards kasalligi bilan tug‘ilgan o‘g‘il bolalar uzoq yashamasdan hayotining dastlabki oylaridayoq vafot etadi, qiz bolalar esa 2-3 yoshgacha yashashi mumkin.



Bunday kasalligi bor bolalar 9 oylik bo‘lib tug‘ilgan bo‘lsa-da, vazni juda kichkina bo‘ladi.Kasallikning belgilari quyidagilardir:esa bo‘rtib chiqqan, bosh uzunchoq, jag‘lar va og‘iz bo‘shlig‘i kichik, tanglay baland, quloqlari juda past joylashgan, qon aylanish tizimi, ko‘rish qobiliyati va buyrakning tuzilishi buzilgan, qo‘l barmoqlari juda kalta. Kaftda ko‘ndalang ketgan burma bo‘lib, deyarli barcha barmoqlar uchida yog‘simon chiziqlar kuzatiladi. Bu kasallik 4500, 6500 sog‘lom bolaga bitta to‘g‘ri keladi.


Patau kasalligi.

Kasallikni birinchi bo‘lib K.Patau 1961-yilda o‘rgangan. Kasallik bitta xromosomaning ortib ketishi bilan yuzaga chiqadi(46+1). Bu ortiqcha xromosoma 13-15-juft xromosomalardan biri bo‘lib, qaysi bir juftga kirishini aniq aytish qiyin.Chunki 13,14,15-juft xromosomalar bir-biriga juda

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-12

o‘xshash.Shuning uchun Patau kasalligini D guruhga mansub xromosomalardan birining oshishiga bog‘lab tushuntiriladi. Bunday kasallik bilan bolalar, odatda, sog‘lom ota-onalardan tug‘iladi va 3500, 4000 sog‘lom bolaga bitta kasal bola to‘g‘ri keladi.



Kasallikka xos belgilar quyidagilardir. bolalarni vazni,bo‘yi juda kichik va ko‘pincha vaqtidan avval tug‘iladi. Yuqori labida tanglayda yoriqcha bo‘ladi. Ko‘z bo‘lmasligi ham mumkin, bosh miyya yaxshi rivojlanmaydi, barmoqlar soni odatdagidan ko‘p. Buyrak, yurak, ichak,taloq, qizlarning bachadoni, o‘g‘il bolalarning esa moyagida ko‘pgina o‘zgarishlar bo‘ladi. Dernatoglifika belgilaridan asosiy triradius 180°ga teng. Odatda, kasal bolalar tug‘ilgandan keyin 2-3hafta ichida vafot etadilar. Kamdan-kam chaqaloqlar 2-3yoshgacha yashashi mumkin.

Klayfelter kasalligi.

Erkaklarda uchraydigan bu kasallikni 1942-yilda K.Kleynfelter aniqlagan edi.Kleynfelter kasalligida X-xromosomalar soni ortiqcha bo‘ladi, ya’ni 44 XXY.Ushbu kasallik bilan tug‘ilgan bolalarning sog‘ bolalarga nisbati 1:1000 bo‘lib, nisbat katta yoshdagi kishilarda ham saqlanib qoladi. Kasallikning asosiy belgilari quyidagilardir:buni baland,qo‘l va oyoq uzun, tana shakli ayollarga xos :yelka tor, tos suyagi keng, mushaklar va urug‘ chiqaruvchi kanal yaxshi rivojlanmagan, urug‘don juda kichik bo‘lib, spermatogenez kuzatilmaydi. Ko‘pchilik holatda aqliy zaiflik yuzaga keladi va ayrim holatlardagina aqliy tomondan normada bo‘lishi ham mumkin.Barmoq uchlari terisidagi tasvirlar ko‘pincha yoysimon bo‘lib, ulardagi egatchalar (chiziqlar) ming umumiy soni ancha kamaygan bo‘ladi. Kasallikning 44+XXY(47) genotipligidan tashqari 44+XYY(47), 44+XXXY(48), 44+XXYY(48), 44+XYYY(48), 44+XXXXY(49), 44+XXXYY(49), 44+XXYYY(49) genotiplilari ham uchrab, o‘ziga xos fenotipli bo‘lishi mumkin. Kasallik bularda og‘irroq kechadi.


Shershevskiy-terner kasalligi.

Kasallikni 1925-yilda N.A.Shershevskiy va 1938-yilda trenerlar izohlab berganlar. Bu kasallik ayollarga xos bo‘lib, 1:3000 nisbatda uchraydi. Shu kasalligi bor ayollarda xromosomalar soni 45 ta bo‘lib, bitta xromosoma kam bo‘ladi. Kasallikning asosiy belgilari quyidagilardir :past bo‘yli, yengil vaznli, bo‘yin juda qisqa va burmali bo‘ladi, tuxumdon va ikkilamchi jinsiy belgilar yaxshi rivojlanmagan, yelka keng bo‘lib, tos suyagi va oyoqlar kalta. Oylik sikl kuzatilmaydi. Ko‘krak bezlari rivojlanmay, ular o‘rniga yog‘ to‘plamlari paydo bo‘ladi.Yuz ko‘rinishi o‘zining yoshiga qaraganda qari ko‘rinadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12



Kaftdagi asosiy triradius atd kengaygan. Barmoqlar uchida aylanasining tasvirlar uchraydi. Qon aylanish, nerv va boshqa ichki organlar tizimida ham o‘zgarish sodir bo‘ladi.Bunday kasallikka chalinganlar o‘zidan nasl qoldira olmaydi.Ularni davolash usullari hozirgacha topilgan emas. Shershevskiy-Terner kasalligining 44+X0 genotipli ko‘rinishidan tashqari 46+X0,44+XY, 46+XX genotiplilari ham uchraydi.


X-xromosoma bo‘yicha trisomiya kasalligi.

Bu kasallik, odatda, ayollarga xos bo‘lib, 44 XXX genotipli bo‘ladi va 1:1000 nisbatda uchraydi.Fenotip juda xilma-xil, bo‘lishi mumkin.Tuxumdon o‘zgargan,aqliy zaif bo‘lib, jismoniy rivojlanish orqada qolgan, tanglay qattiq va yuqori joylashgan bo‘lib, tuxumdon yaxshi rivojlangan bo‘lmaydi, shuning uchun pushtsizlik erta paydo bo‘ladi.Kaft va barmoq terisidagi naqshlar o‘zgargan, lekin normada ham bo‘lishi mumkin.Kariotip barchasida deyarli bir xil, ya’ni 44 XXX, lekin ayrim holatlarda 44 XXXXY va 44 XXXXX genotiplilari ham uchraydi.Bundy genotipli kasallarda tashqi belgilarida o‘zgarishlar ko‘proq bo‘ladi.

Xromosomalar strukturasining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lgan kasalliklar.

"Mushuk chinqirig‘i "kasalligi. Kasallikni 1960-yilda Jekobs o‘rganadi. Keyinchalik esa (1963)bir oilada ikkita bolaning bu kasallik bilan tug‘ilganligi aniqlanadi. Bu bolalarning fenotipik jihatdan sog‘lom bo‘lgan onasining 5-xromosomasida uzilish (deletksiya) bo‘lganligi va xromosomaning shu uzilgan bo‘lagining 13-15-juft xromosomalardan biriga kelib birikkanligi (translokatsiya)aniqlangan.





Bunday muvozanatli translokatsiya natijasida onada o‘zgarish kam bo‘lgan. Onadagi uzilish bo‘lgan 5-xromosoma bolalarga o‘tsa, bolalarda "mushuk chinqirig‘i"kasalligi paydo bo‘ladi.Bolaga 5-

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

xromosomaning uzilish bo‘lgan bo‘lagi, ya’ni translokatsiyasi bor 13-15-xromosomalar o‘tsa, bolada yuqoridagi kasallikka xos belgilar sodir bo‘lmas ekan."Mushuk chinqirig‘i" kasalligi bilan tug‘ilgan bolalarning sog‘ bolalarga nisbatan uchrash nisbati aniq emas,lekin keyingi paytlarda bu kasallikka duchor bo‘lgan bolalar sonining ko‘payganligi ma’lum. Hozirgi vaqtda bu kasallik 1:50000 nisbatda uchrayotganligi ma’lum. Kasallikning asosiy belgilari quyidagilardir. ovoz paylarida o‘zgarish bo‘lganligi uchun mushuklarning chinqirib miyovlashga o‘xshash ovoz chiqaradi, chuqur aqliy zaiflik, jismoniy zaiflik,yuz tuzilishi yumaloq,kalla suyagi kichik, ko‘z kesimi antimongoloid tipda, qon aylanish tizimi, ovqat hazm qilish tizimi bilan bog‘liq qator normadan chetga chiqish holatlari kuzatiladi.Ushbu sindrom bilan tug‘ilgan chaqaloqlarning birinchi yiliyoq o‘lib ketadi, hayotining davomiyligi juda qisqa. Ulardan faqat 14%gina 10 yoshdan oshishi mumkin. Kasallarning 50%ida hiqildoq noto‘g‘ri tuzilishga ega va 25%id esa yurak tuzilishida o‘zgarish bo‘ladi. Kariotipda 5-xromosomaning kichik yelkasida uzilish (delegatsiya) bo‘lganligi tufayli u sezilarli darajada kichiklashgan.

18-juft xromosomaning uzun yelkasidagi uzilish

Xromosomada bo‘ladigan bu o‘zgarish 1964-yili o‘rganildi. Xromosomada shunday o‘zgarish bo‘lgan bolalarda kalla suyagi kichik,burun kichik, ovoz o‘tish yo‘li toraygan g‘ilaylik, qiyshiq oyoq, barmoqlarning bo‘lmasligi kuzatiladi. Ichki organlarda ham katta o‘zgarish bo‘ladi.

Natija va muhokamalar

Genetik asoslar

O‘zbekiston tadqiqotlarida ko‘p uchraydigan kasalliklar:

- **Down sindromi (21-trisomiya):** Klinik belgilar aniq ta'riflangan, xromosomal anomaliya asos sifatida tasdiqlangan.
- **Klinefelter sindromi (47, XXY):** Reproduktiv disfunktsiyalar bilan bog‘liq belgilar.
- **Talassemiya:** Autosomal resessiv yo‘nalish, qon hujayralarining gemoglobin sintezi bilan bog‘liq.

Keng muhokama. Milliy tibbiyot amaliyotida genetik diagnostika ko‘pincha klinik belgilar bo‘yicha amalga oshiriladi, molekulyar darajadagi tekshiruvlar cheklangan. Bu holat tez aniqlash va ilg‘or davolash strategiyalarini rivojlantirishni talab qiladi.

Klinik xususiyatlar

Kasalliklarga xos asosiy belgilarning umumiy xususiyatlari:

- Umumiy rivojlanish kechikishi.
- Skelet va yuz anatomiyasidagi o‘zgarishlar.
- Gematologik disfunktsiyalar (talassemiya).

Muhokama. Klinik ko‘rinishlar tibbiyot xodimlari tomonidan tan olinadi, ammo genetika markazlarining yetishmovchiligi diagnostika muddatini uzaytiradi.

Davolash strategiyalari

O‘zbek tibbiyotida qo‘llanadigan yondashuvlar:

- Simptomatik terapiya (vitaminlar, qon mahsulotlari).
- Ekspertlar tavsiyasiga ko‘ra keltirilgan genetik maslahatlar.
- PCR va karyotiplashga asoslangan skrining.

Kamchilik: Gen terapiya yo‘nalishida milliy tadqiqotlar juda kam.

Xulosa. Xromosoma va autosoma gen kasalliklari inson organizmida irsiy axborotning buzilishi natijasida yuzaga keladigan murakkab va ko‘p qirrali patologiyalar hisoblanadi.Ushbu kasalliklarning

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

genetik asosida xromosomalar soni yoki tuzilishidagi o‘zgarishlar, shuningdek autosomal genlarda sodir bo‘ladigan mutatsiyalar yotadi Natijasida hujayra faoliyati, metabolizm jarayonlar va organlar rivojlanishida jiddiy buzilishlar yuzaga keladi.Ushbu kasalliklarning klinik xususiyatlari keng spektrda bo‘lib, yengil shakllardan og‘ir va hayot uchun xavfli holatlargacha yetib boradi. Zamonaviy tibbiyotda genetik kasalliklarni to‘liq davolash imkoniyati cheklangan bo‘lsa-da, davolash strategiyalari asosan simptomatik, patogenetik va profilaktik yondashuvlarga asoslanadi.Bular qatoriga dori vositalari bilan davolash, gormonal terapiya, reabilitatsiya choralari, jarrohlik aralashuvlar hamda genetik maslahat berish kiradi. Ayniqsa,prenatal diagnostika, skrining dasturlari va tibbiy -genetik maslahat genetik kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.Xulosa qilib aytganda, xromosoma va autosoma gen kasalliklarini chuqur o‘rganish, ularning genetik mexanizmlarini aniqlash va klinik belgilarini erta aniqlash bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi.Kelajakda gen terapiyasi va molekulyar tibbiyotning rivojlanishi ushbu kasalliklarni samarali davolash va profilaktika qilish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.Nussbaum R.L.,Mclnnes R.R.,Willard Ha.F.Thompson & Thompson Genetika in Medicina.9th ed. -Philadelphia:Elsevier, 2023.

2.Turnpenny P., Ellard S.Emery’s Elements of Medical Genetics and Genomics.16 th edi. -London : Elsevier,2022.

3.Abdukarimov A.A.Tibbiy genetika. -Toshkent :Abu Ali Ibni Sini nomidagi tibbiyot nashriyoti,2018.

4.Ismoilov S.I.Inson genetikasi va irsiy kasalliklar.-Toshkent : O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti,2020.

5.Бочков Н.П.Медицинская генетика.Москва:ГЭОТАР-Медиа,2020.

6.Айала Ф.,Кайгер Дж.Современная генетика.-Москва:Мир,2018.

7.Захаров А.Ф.,Кулешов Н.П.Наследственные болезни человека.-Санкт-Петербург :СпецЛит,2019.

8.Strachan T.,Read A.Human Molecular Genetics. 5th edi. -New York :Garland Science, 2019.

9.Karimov X.Y.,Rahmonov Bu.J.Klinik genetika asoslari.-Toshkent :Fan va texnologiya,2019.

10.Авезова, Г. С., & Бобомуратов, Т. А. (2025). ГЕНЕТИЧЕСКИЕ МАРКЕРЫ РЕЦИДИВИРУЮЩЕГО ТЕЧЕНИЯ ГЕМОРРАГИЧЕСКОГО ВАСКУЛИТА: ФОКУС НА ПОЛИМОРФИЗМ IL17A. Медицинский журнал молодых ученых, (15 (09)), 10-14.

11. Авезова, Г. С., & Бобомуратов, Т. А. (2025). ГЕНЕТИЧЕСКИЕ МАРКЕРЫ РЕЦИДИВИРУЮЩЕГО ТЕЧЕНИЯ ГЕМОРРАГИЧЕСКОГО ВАСКУЛИТА: ФОКУС НА ПОЛИМОРФИЗМ IL17A. Медицинский журнал молодых ученых, (15 (09)), 10-14.

12.Bakhodirovich, K. I., Normuminovich, J. E., Abdurakhmonovich, S. A., & Bakhodirovich, B. A. (2025). ALBENDAZOLE THERAPY FOR HEPATIC HYDATID DISEASE. AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE, 3(6), 107-112.

13.Avezova, G. S. (2024). BOLALARDA GEMORRAGIK VASKULITNING KLINIK KECHISH XUSUSIYATLARI.

14. Шоймардонов, Б. Х., Шайхова, Г. И., & Авезова, Г. С. (2025). ПРОФИЛАКТИКА ЗАБОЛЕВАНИЙ ПИЩЕВАРИТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ В УСЛОВИЯХ ЖАРКОГО КЛИМАТА: ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЙ И ГИГИЕНИЧЕСКИЙ ПОДХОД (ОПЫТ

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-12

СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ). Медицинский журнал молодых ученых, (15 (09)), 189-193.

15.O‘zbekiston Respublikasi Soliqni saqlash vazirligi.Tibbiy- genetik maslahat bo‘yicha metodik qo‘llanma. -Toshkent,2021.

16..Mavlyanov, O. R., Ataliev, A. E., Mavlyanov, J. A., Babajonov, A. B., Yusupbekov, D. A., & Nurmatov, S. I. (2019). A SINGLE-ROW SUTURE IN SURGERY OF THE GASTROINTESTINAL TRACT. Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi, (2), 28-35.

17.Teshayev, O. R., Khayitov, I. B., Babajonov, A. B., & Bobonazarov, S. B. (2025). BARIATRIC SURGERY IN LIVER CIRRHOSIS: A COMPREHENSIVE REVIEW OF CURRENT EVIDENCE. AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE, 3(6), 172-187.

19.СтруковА.И.,Серов В.В.Патологическая анатомия. -Москва:Литтерра,2021.

22.Пузырев В.П.Генетика человека и наследственные заболевания. -Томск:Сибирский медицинский университет, 2017.